

O'QUVCHILARNING YOZMA NUTQINI O'STIRISH KOMPETENSIYASI

G.Karimova

QVXTXQTMOI Til va adabiyot

ta'limi kafedrası ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Ma'ruza mashg'ulotini olib borish texnologiyasi

Ish bosqichlari	O'qituvchi faoliyatining mazmuni	Tinglovchi faoliyatining mazmuni
1-bosqich. Mavzuga kirish (3 min)	<p>1.1.O'quv mashg'uloti mavzusi, savollarni va o'quv faoliyati natijalarini aytadi.</p> <p>1.2.Baholash mezonlari.</p> <p>1.3. Aqliy hujum usulida mavzu bo'yicha ma'lum bo'lgan tushunchalarni faollashtiradi. Aqliy hujum usuli natijasiga ko'ra tinglovchilarning nimalarda adashishlari, xato qilishlari mumkinligining tashxisini amalga oshiradi.</p> <p>1.4. Mavzuni jonlashtirish uchun savollar beradi.</p>	<p>Tinglaydilar. Yozib oladilar</p> <p>Tinglaydilar. Savollarga javob beradilar</p>
2 -bosqich. Asosiy bo'lim (67 min)	<p>2.1. Savol yuzasidan qisqa ma'ruza qiladi.</p> <p>2.2.Ma'ruza rejasining hamma savollari bo'yicha tushuncha beradi. (Ma'ruzada berilgan savollar yuzasidan umumlashtiruvchi xulosa beradi.</p> <p>2.3.Tayanch iboralarga qaytiladi. Talabalar ishtirokida ular yana bir bor takrorlanadi.</p>	<p>Tinglaydilar. Tinglaydilar. Har bir tayanch tushuncha va iboralarni muhokama qiladilar.</p>
3- bosqich. Yakunlovchi (10 in)	<p>3.1.Mashg'ulot bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu bo'yicha olingan bilimlarni qayerda ishlatish mumkinligi ma'lum qiladi.</p> <p>3.2.Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish uchun adabiyotlar ro'yxatini beradi.</p> <p>3.3.Keyingi mazvu bo'yicha tayyorlanib kelish uchun savollar beradi.</p>	<p>Savollar beradilar. O'z fikrlarini bayon qiladilar.</p>

O'quvchilarning yozma nutqini o'stirish

Ona tili o'qitishdan maqsad tilning jamiyat a'zolari o'rtasida bajariladigan vazifasi - o'quvchilarni fikr bayon qilish faoliyatiga tayyorlash vazifasidan kelib chiqadi. Chunki kishilar o'z faoliyatlarining barcha sohalarida bir-biri bilan faol munosabatda bo'ladilar. Ular doimo o'zlarini o'rab olgan moddiy borliqdagi narsa-buyumlar va voqea-hodisalar to'g'risida fikr yuritadilar va o'z fikrlarini bir-birlariga ma'lum qiladilar.

Demak, jamiyatda fikr almashish qonuniy zaruriyatdir. Odamlar orasida fikr almashish bo'lmasa, jamiyat taraqqiyotdan to'xtaydi. Fikr esa faqat til yordamida ro'yobga chiqadi. Shuning uchun ham har bir kishi undan foydalanishni bilish va avvalo uning o'zini to'la-to'kis o'rganib olishga harakat qilishi zarur. Tilni o'rganish bu faqat uning grammatik qurilishini bilish, tushuncha, ta'rif va qoidalarini o'zlashtirib olish emas, balki ona tilining boy imkoniyatlaridan foydalanib, fikrni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash masalalarini egallashdan iboratdir. Ona tili fani bolaga tilni o'rgatish bilan birga, tilning serqirra imkoniyatlaridan nutqda foydalanish me'yorini ham o'rgatadi.

Ona tili mashg'ulotlari o'quvchilarga faqat nutqni egallash yo'llarini emas, balki undan foydalanish madaniyati va mahoratini ham o'rgatib boradi.

O'quvchi nutqini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, unda barcha imkoniyatlar to'laligicha ishga solinsa, fikrni og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatish osonlashadi. Natijada o'quvchi nutqini rivojlantirishga keng yo'l ochiladi.

Ona tili o'qitish jarayonida o'quvchilar nutqiga qo'yiladigan talablar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat.

O'quvchilar nutqini o'stirish ishlari zo'r tayyorgarlikni, materiallarning xilma-xil va qiziqarli bo'lishini talab etadi va asosan, dastlabki davrda og'zaki tarzda olib boriladi. Nutq o'stirish ishlarining xilma-xil tarzda o'tkazish o'quvchilarning faolligini oshiradi, lug'atini yangi-yangi so'zlar bilan boyitadi, ularda bog'lanishli nutq malakalarini rivojlantiradi.

Ona tili o'qitish jarayonida o'quvchilar nutqiga qo'yiladigan talablar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:


O'quvchilar lug'atini so'z boyligi bilan ko'paytirish usullari

Maktabda o'quvchilarning so'z boyligini oshirish murakkab jarayon bo'lib, u asosan quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- ***O'quvchilarni ularga notanish so'z va iboralar bilan tanishtirish.***



O'quvchi nutqi faqat tilimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tufayli paydo bo'layotgan so'zlar emas, balki ular birinchi marta duch kelayotgan mavjud so'zlar ham yangidir.

Chunonchi, badiiy matnlarda ular bo'lma(xona), ishkom (tok so'risi), omi (savodsiz), sinchalak (chittak), so'ri (katta taxta karavot), hamiyatli (oriyatli) kabi bir qator so'z va iboralarga duch keladilarki, ular tilimizda yangi so'z emas, ammo o'quvchi uchun yangidir.



- ***O'quvchilarni so'zning yangi ma'nolari bilan tanishtirish.***

Bola quyi sinflarda so'zning ma'lum bir ma'nosiga duch kelsa, keyingi sinflarda shu so'zning boshqa ma'nolari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun ona tili o'qituvchisi bolalar nutqini doimiy tahlil qilib borishi, iste'molda bo'lmagan ko'p ma'noli yoki ma'nodosh so'zlarni aniqlashi, ularni qaysi yo'llar bilan o'quvchi nutqiga olib kirish choralarini ko'rish lozim.



- ***O'quvchi nutqidagi kam iste'mol so'zlarni iste'molli so'zlarga aylantirish mashqi:***

Ko'p hollarda o'quvchi so'zning ma'nosini bilsa-da, ammo nutqda undan deyarli foydalanmaydi. Bu holni bartaraf etish uchun matndagi ma'lum bir so'zni uning ma'nodoshlari, uyadoshlari, qarama-qarshi ma'nolari bilan almashtirish,

nuqtalar o'rniga mazmunga muvofiq keladigan zarur so'zni topib qo'yish kabi amaliy ishlardan unumli foydalansa bo'ladi.

Masalan:

Abdulla Qodiriy asarlari, ayniqsa, romanlari jahon miqyosida keng tarqaldi. Uning [«O'tgan kunlar»](#), [«Mehrobdan chayon»](#), [«Obid ketmon»](#) asarlari rus, ingliz, nemis, italyan, arab, ozarbayjon, tojik, qozoq, uyg'ur, tatar tillariga tarjima qilingan. Nemis adabiyotshunoslari N. Tun, I. Baldauf, amerikalik tadqiqotchilar e. Olvort, Xristofor Murfi, eden Nabi kabi olimlar Abdulla Qodiriy ijodi bo'yicha jiddiy ishlar qilganlar.

Abdulla Qodiriy _____, ayniqsa, romanlari jahon miqyosida keng _____. Uning [«O'tgan kunlar»](#), [«Mehrobdan chayon»](#), [«Obid ketmon»](#) _____ rus, ingliz, nemis, italyan, arab, ozarbayjon, tojik, qozoq, uygur, tatar tillariga _____. Nemis adabiyotshunoslari N. Tun, I. Baldauf, amerikalik _____ E. Olvort, Xristofor Murfi, eden Nabi kabi _____ Abdulla Qodiriy _____ bo'yicha _____ ishlar qilganlar.

Belgilangan so'zlarni ma'nodosh so'z bilan almashtirish mashqi:

Qodiriy o'z **faoliyati davomida matbuot sohasida ham ahamiyatli** ishlar qildi. “Mushtum” **jurnalining tashkil etilishi adib nomi** bilan **bog'liqdir**. **YOzuvchi bir qator ilmiy-publitsistik**, adabiy-tanqidiy **maqolalar** yozdi. “Kalvak mahzumning xotira daftaridan”, “Toshpo'lat tajang nima deydi?”, “Shirvon xola nima deydi?” kabi **satirik asarlari** bilan o'z jurnalini **boyitdi**. **Muallif** bu asarlarida **inson xarakteridagi yomon illatlar, qusurlar ustidan kuladi**. **Mazkur** asarlarida yozuvchi **o'tmishning** va o'zi **yashayotgan davr turmushining dahshatli manzaralarini zaharxanda qahqaha vositasida gavalantirib, chinakam hajviy xarakterlar yaratish bobida katta mahorat egasi ekanligini namoyish qiladi**. XX asr o'zbek adabiyotida **o'chmas iz qoldirgan** Abdulla Qodiriy 1938 yilda qatag'on davrining qurboni bo'ldi.

O'quvchilarda gap tuzish mahorati va ko'nikmalarini oshirish uchun quyidagi topshiriqlar bilan ishlanadi

- **Gapni ixchamlashtirish mashqi:**

Bunda o'quvchilar jumlani ixchamlashtiradi:

- Bunaqa narsa menga ta'sir qilmaydi,— dedi,— Akramjon, bularga tobut voqeasini aytib bering... yo'q, yo'q, o'zim aytib beraman! Bunga besh yildan oshdi. Ko'z oldimdan ketmaydi... Qalin qor yoqqan kun edi. Men derazaning ro'parasida mana shu xilda yotibman, Akramjon paypog'ini yamayotgan edi shekilli. Birdan ko'cha eshigimiz ochildi-yu, qizil bir narsa kirdi, nima ekan deb qarasam - tobut! Akramjonning ikki o'rtog'i hovlimizga tobut ko'tarib kirdi! Yuragim jig' etib ketdi... Voy sho'rim, nahot o'lgan bo'lsam...

• **Gapni kengaytirish va toraytirish mashqi:**

Bunda kesimdan savol berish orqali uning egasi va ikkinchi darajali bo'laklarini topib qo'yish lozim bo'ladi.

O'quvchilarga «Boraman», «Uchishdi», «Ko'rganmisiz» singari bir bo'lakli gaplarni berib, ularni avval ikki bo'lakli (Men boraman. Qushlar uchishdi. Siz ko'rganmisiz? kabi), so'ngra ko'p bo'lakliga (Qushlar qaerga uchishdi? Qushlar issiq o'lkalarga uchishdi. –Qushlar qachon issiq o'lkalarga uchishdi? – Qushlar kuzda issiq o'lkalarga uchishdi) gapga aylantirish topshiriladi.

• **Gap mazmunini saqlagan holda shaklini o'zgartirish mashqlari:**

Masalan, Mehmon ot-aravada keldi. - Mehmon ot qo'shilgan aravada keldi. Karvon kun bo'yi dashtni kezib yurdi. – Karvon kun bo'yi dashtda kezib yurdi. 2. Bu polotnoni mashhur rassom O'rol Tansiqboev ishlagan. – Bu polotno mashhur rassom O'rol Tansiqboev tomonidan ishlangan. 3. Bu tashabbusni ham siz boshlab bergansiz. – Bu tashabbus ham sizdan boshlangan.

• **Matni gaplarga ajratish mashqi:**

- Bunda o'quvchi tinish belgilari tushirib qoldirgan matni gaplarga ajratar ekan, har bir gapning tugallangan ohang va nisbiy tugal mazmuniga ega ekanligini tushunib oladi. Bu esa gap haqidagi tasavvurlarni kengaytiribgina qolmay, balki gap qurish sa'natini mukammalroq egallashga ham yordam

beradi. **Ikki yoki undan ortiq sodda gapni birlashtirib, bitta sodda yoki qo'shma gap tuzish mashqi:**

- Masalan, «O'g'lim a'lo bahoga o'qidi», «U oliy o'quv yurtiga kirdi» kabi gaplarni berib, ulardan bir gap hosil qilishni topshiriladi. O'quvchilar uni quyidagicha bir gapga aylantirishi mumkin:

O'glim a'lo bahoga o'qigani uchun oily o'quv yurtiga kirdi.

Gapni stilistik jihatdan tahrir qilish mashqi:

Sinfning shkaf burchagida turardi. Lola o'qirdi besh bahoga va h.k.

Gaplar tuzish mashqi:

O'quvchilarning mustaqil bilimga ega ekanlik darajasidan kelib chiqib, ular quyidagi guruhlardagi gaplarni tuzadilar:

a) berilgan ma'lum bir so'z, tayanch so'zlar, so'z birikmalari, tasviriy ifoda va iboralardan foydalanib, gaplar tuzish;

b) berilgan andozaga qarab gap tuzish;

v) berilgan mavzuli rasmdan foydalanib gap tuzish;

g) o'qituvchi yoki o'quvchilar tavsiya etgan ma'lum bir mavzuga oid gaplar tuzish.

Xullas, ona tili o'qitish jarayonida o'qivchilar nutqini rivojlantirish, birinchi navbatda ularning so'z boyligini oshirishni taqozo etadi. Buning uchun biz yuqorida ko'rsatgan mashqlar bunga yordam beradi deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2000, 23-b.
2. Abdullaeva Q. Nutq o'stirish. Toshkent: O'qituvchi, 1980.
3. Jamolxonov H. Yo'ldashev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili (Ma'ruzalar matni). – T., TDPU., 2000.
4. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. –T: «O'qituvchi», 1995.

5. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. - T., TDPI., 1999.

6. Oripov Q., Obidova M. Ifodali o'qish. Toshkent: O'qituvchi, 1982